

YOSHLAR OROLNI ASRAYDI

Abdurofiyeva Nodirabonu

Termiz davlat universiteti Yuridik
Fakulteti “Yurisprudensiya” (faoliyat
turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Tabiatni muhofaza qilish, uni asrash uni yanada jonlanishiga hissa qo'shish –bu biz fuqorolarning burchimizdir va tabiatning bizga tortiq etgan ne'matlari uchun unga izhor etgan minnatdorchiligimizdir. Tabiatning bir bo'lagi bo'lgan Orol fojiasi, ya'ni orol dengizining qurib borayotgani hech birimizga sir emas. Ushbu maqolada orolning paydo bo'lishi, uning nomlanishi, uning tabiati, qurish sabablari va yechimlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlari: Orol, dengiz, orol dengizi, Oks, Yaksard, Amudaryo, Sirdaryo, Arrian, shartnoma, sessiya, BMT, Asambleya, ekologiya, Geodeziya, ekologik, huquq, fuqaro, modda, konstitutsiya, baliqchilik, ovchilik, paxtachilik, chorvachilik.

Orol dengizi oldingi davrlarda dunyodagi eng katta ichki dengizlardan biri hisoblangan. O'sha davrlarda o'zining serbaliqligi sababli uning atrofida istiqomat qiluvchi xalqlar juda sog'lom edi va baliqchilik va ovchilik ravnaq topgandi. Orol dengizining sersuvligining siri unga purviqor Amudaryo va Sirdaryoning quyilishi, yerosti suvlarining hamda havo yog'ingarchililari-yu yuzadan suvning bug'lanib quyilishida edi. Orol dengizining nega aynan orol deb nomlanishi hech birimizni qiziqitirmay qolmaydi. Uning yaqinida istiqomat qiluvchi shaxslardan olingan ma'lumotlarga ko'ra dengizning orol deb nomlanishiga bog'liq rivoyat mavjud. Bu rivoyat ularga ota-bobolaridan meros qolgan. Gap shundaki, qadim zamonlarda mavjlanib oquvchi, suvi tiniq va jilodor dengiz atrofida sak va massaget nomli xalqlar kelib o'rtnashishibdi va bu yerning manzarasi, tabiatiga maftun bo'lgan xalqlar shu yerda muqim qolishishib, umrguzaronlik qila boshlashibdi. Ular bu dengizdan baliq ovlashar, uning atrofidagi yovvoyi hayvonlarni ovlab kun kechirar ekanlar. Kunlardan bir kuni shu xalq vakillaridan birining oilasida o'g'il farzand dunyoga kelibdi. Unga ism qo'yishda ko'p izlanishib axiyri bir to'xtamga kelishibdi. Uni Orol deb nomlay boshlashibdi. "Orol"so'zining manosi (Irq bitigida: hammadan ajralib turuvchi, o'zgacha) degan ma'nolarni berar ekan. U ulg'ayibdi va har kuni yashaydigan hududlaridagi ulkan dengiz atrofini sayr etadigan odat chiqaribdi. Onasi undan borish sababini so'raganda, dengizning to'lqinlari unga kuch berishi, dengizga borsa o'zini

baxtiyor his qilishini aytar ekan. Orol yuqolib qolsa, hech kim xavotirlanmas ekan, chunki uning joyi tayin edi, u dengizda sayr etardi. Shu bois bu dengizga “Orolning dengizi” deb nom berishgan ekan. Bugungi kunda uning qisqartmasi orol dengizidir. Shu tariqa dengiz orol deb nomlana boshlagan ekan. Orol dengizi to`g`risida tarixiy mutafakkirlar o`z asarlarida ma`lumot berib o`tishgan. Milloddan avval yashab o`tgan antik davr tarixchilari Strabon, Varron, xitoylik sayyoh va olim Jon Syan Orol haqida qimmatli ma`lumotlar berib o`tishgan. Abu Rayhon Beruniy ham “Geodeziya” asarida uzoq tarixga oid ilmiy ma`lumotlar keltirib o`tgan. Olimlar Orol dengizi to`g`risida ko`plab qiziqarli dalillarni aniqlashgan. Bulardan:

1. Ilgarilari Mo`ynoq shahrining yaqinida bo`lgan dengiz hozirgi kunga kelib uning sobiq qirg`og`idan 100km uzoqlikda harakatlanadi.
2. Sayozlab boshlanguniga qadar Orol dengizi dunyodagi eng katta 4-ko`l hisoblanar edi.
3. Orol dengizining silliq yuzasi-erigan ultramarindir. Orol dengizining moviy suvi ko`plab sayyohlarning hayratiga sabab bo`lgan.
4. Orol dengizi sayyoramizdagi eng sho`r ko`llardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilarning taxmin qilishlaricha unda 11mln tonna tuz mavjudtir.
5. Orol dengizining tubida 11-16 asrlarga oid bo`lgan qadimiy aholi punktlari va diniy binolarning qoldiqlari topilgan.
6. Orol dengizi-noto`g`ri dengizdir. Gap shundaki, dengiz oqimi chapga burilib, soat yo`nalishi bo`yicha harakatlanadi va kislorod boshqa suv havzalaridan farqli o`laroq chuqurlikka ko`payib boradi.
7. Chang va bo`ronlar Orol cho`li yuzasidagi tuz va zaharli kimyoviy moddalarni 500km masofagacha olib boradi.

Orol dengizining geografik joylashuviga keladigan bo`lsak u juda katta hududni tashkil etadi. Orol dengizning havzasi EvroOsiyo qit`asi markazida joylashgan bo`lib, butun O`zbekiston va Tojikiston hududini, Qozog`istonning janubiy qismini (asosan Qizilo`rda va Shimkent viloyatlari), Qirg`izistonning g`arbiy va markaziy qismi (O`sh va Jalolobod viloyati), Turkmanistonning sharqiy mintaqalari (g`arbda Balkan ko`li bundan mustasno) hamda shimoliy Afg`oniston qismi va Eronning shimoliy-sharqiy hududini qamrab oladi. Yaqin o`tmishda, ya`ni o`tgan asrning 1960-yillarida Orol dengizi maydoni 67000 km², suv sathi ko`rsatkichi 53,4 metrga teng to`rtinchi suv obyekti hisoblangan. 1960-yillardan boshlab orol dengizining suv sathi pasayib borgan, bu orolning “nobud” bo`la boshlayotganligidan bir belgi edi xolos. Ming afsuslar bo`lsinki hozirgi kunda orol dengizining suv hajmi 9 barobarga qisqargan,

qurigan dengiz tubi 4,0mln. gektardan ko`proqni tashkil etadi. Garchi, Orol dengizi muammosi ma`lum bo`lgan bo`lsada, o`tgan asrning 1990-yillarda xalqaro ahamiyatga ega bo`ldi desak adashmagan bo`lmiz. Orol dengizi muammolarining asosiy sabablari uning havzasida va mahalliy darajada suvdan oqilona foydalanilmaganligida edi. Orol va Orol bo`yida sodir bo`layotgan jadal ravishdagi cho`llanish hodisasi dunyo tajribasida uchratilmagan. Shuning uchun uni miqdor hamda sifat jihatdan baholashda olimlarga turli xil qiyinchiliklar kelib chiqmoqda. Dengiz tubining ochilishi va daryo deltalarining qurib borishi natijasida "Orol"cho`li kengayib bormoqda va yana bir salbiy jihati shundaki, ochilib qolgan dengiz tubining maydoni g`ayrioddiy tuz zarrachalari bilan qoplanib, yangi shakldagi qum qoplamasini tashkil qildi. Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, yiliga atmosferaga 15-75mln.tonnagacha chang to`zon ko`tarilishi mumkin. Orol dengizi behudaga "kemalar qabristoni" deb atalmaydi. Boisi shundaki' ilgari Orol dengizida turli mamlakatlarning kemalari savdo va boshqa maqsadlarda suzib yurishgan. Suv sathi kamayib ketishi hamda Orol dengizining tubida suv yutuvchi tuynukning paydo bo`lishi natijasida kemalar harakatga kelmay qolgan. Hozirgi kunda Orol maydonida ko`plab foydalanishga yaroqsiz bo`lgan kemalarni uchratishimiz tabiiy holatdir. Amudaryoning quyi oqimida baliqchilik, mo`ynachilik, ovchilik xo`jaliklari yo`q bo`lib ketdi. Paxtachilik va chorvachilik 1980-1985-yillarda har yili 30mln rubldan ortiqroq zarar ko`rdi. Orol dengizining qurishi nafaqat yer maydoniga, balki unda yashovchi ko`p turli baliqlarni, o`simliklarni, hayvonlarni nobud qildi. Uning qurishi natijasida yuzaga kelgan ko`plab noxush voqealar-u kasalliklardan biz insonlar ham bebahra qolmadik. Orolbo`yi mintaqasida vujudga kelgan og`ir vaziyat yerli xalq ahvolini yanada tang ahvolga soldi. Bu yerda turli xil kasalliklar ko`paya bordi. Majruh tug`ilgan bolalar soni ham ortib bir yoshgacha bo`lgan bolalar orasida o`lim har ming bolaga nisbatan 1980-yildagi 46,5 nafardan 1986-yilda 72 nafarga yetdi. Ayollarning 60 foizi kamqonlik kasallikiga chalingan edi. Orolbo`yida qorin tifi kasalligi 30 marta, yuqumli sariq kasalligi 7 marta oshdi, ayniqsa, saraton(rak)kasalligi ko`payib ketdi. Orolbo`yi mintaqasida vujudga kelgan og`ir ekologik vaziyatda, ayniqsa, dengizga yaqin bo`lgan Mo`ynoq, Qo`ng`irot, Chimboy shaharlari va atrofidagi ovullar aholisi ko`p aziyat chekdi. Baliqchilik bilan nom chiqargan mo`ynoqliklarning ko`pchiligi 10-15 yil ichida ishsiz va nochor ahvolga tushdi. Hozirgi kunda Orol dengizi 3 bo`lakka bo`lingan: birinchisi-kichik va sayoz shimoli qismi; ikkinchisi-nisbatan kattaroq maydonga ega bo`lgan va sayoz sharqiy qismi; uchinchisi-eng chuqur hisoblanadigan g`arbiy qismi. Bunday ekologik muammolarni yechish maqsadida ko`plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. 1993-yilda BMT va Markaziy Osiyoning besh davlati tomonidan Orolni qutqarish xalqaro jamg`armasi tashkil etildi. O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti

Islom Abdug`aniyevich Karimov 1993-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida va 1995-yil oktabrdagi 50-sessiyalarida so`zlagan nutqlarida jahon hamjamiyatini Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik halokat bo`lgan Orol va Orolbo`yini qutqarishdako`mak berishga chaqirdi. 2013-yilda Orolbo`yini qutqarish maqsadida yo`naltirilgan mablag`lar ajratish tasdiqlandi. 2013-yilda BMT bosh Assambleyasining rasmiy hujjati sifatida “Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo`yi ekotizimi halokatini oldini olish tadbirlari dasturi”ilgari surildi va ushbu hujjat Islom Karimov tashabbuslari edi. O`zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat.M.Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so`zladi.Unda Orol dengizining qurishini oldini olishga oid fikrlar ham ilgari surildi. Bunday hujjatlarning qabul qilinishi, ajratilayotgan mablag`lar,ko`rilayotgan choralar – bularning hamma-hammasi ekologik muammo bo`lmish Orolni qutqarish maqsadida tashkil etilgan. Orolni qurishiga sabab bo`lgan sobiq SSSR siyosatini eslab o`tsak maqsadga muvofiq bo`lardi. Chunki bizning mamlakatimiz SSSR ga asosiy paxta yetkazib beruvchi vazifasini amalga oshirgan va suv rezursidan noto`g`ri foydalanilishi, ya`ni dalalarga yoppasiga suv quyish yoki Orolga yaqin hududlarda paxta maydonlari tashkil etilishi, bular ham Orolning qurib borishiga asosiy sabablardan biri bo`lib xizmat qiladi. Birinchi navbatda Orol qurishini oldini olish maqsadida “Tomchilatib sug`orish” usulidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.Bundan tashqari Orol hududida suvsizlikga bardosh beruvchi o`simlik,ko`chatlar o`tkazilsa yerning sho`rlanishiga barham bergan bo`lardi.Hozirgi kunda Orol dengizi hududi Turistik zonaga aylandi desak xato qilmagan bo`lardik,chunki butunboshli dengizning qurishi butun dunyo aholisi uchun hayratlanarli hodisadir.Shu sababli bu mintaqaga ko`plab chet ellik sayyohlar tashrif buyurishmoqda. Hammamizga ma`lumki 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda mamlakatimizning konstitutsiyasi qabul qilindi va qomusimizning 65 foiziga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritildi.Uning normalariga ham Orol muammosi o`z aksini topgan.

62-modda.

Fuqorolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo`lishga majburdirlar.

49-modda.

...Davlat Orolbo`yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko`radi.

Bu mintaqaning tiklanishi bosh qomusda ham o`z aksini topgan. Biz fuqorolar hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarni qo`llab quvvatlasak, ekologiyani asrashda o`z hissamizni qo`shsak maqsadga muvofiq bo`lgan bo`lardi.

Manba:

- 1) O`zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi(2023-yil,30-aprel)
- 2) uz.hurriyat.uz
- 3) 11-sinf O`zbekiston tarixi.(Toshkent-2018.Narzulla Jo`rayev,Akbar Zamonov)
- 4) 10-sinf O`zbekiston tarixi.(Toshkent-2017.Qahramon Rajabov,Akbar Zamonov)
- 5) Ekologiya (Toshkent-2018.Z.M.Sattorov)
- 6) EKOLOGIK TURIZM (Toshkent-2018.Raxmatulla Xaitboyev)
- 7) EKOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI (Toshkent-2013.Asqar Nigmatov)
- 8) IJTIMOIIY EKOLOGIYAGA KIRISH (Toshkent-1994.O`qituvchi)
- 9) Internet tarmog`i